


2022- yil yanvar-dekabr oylari uchun Toshkent shahrida qurilish ishlari

2022- yilning yanvar-dekabr ylarida Toshkent shahrida jami **31 908,3 mlrd. so'mlik** qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2021-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **101,1 %** ni tashkil etdi.




2022- yil yanvar-dekabr oylarida qurilish ishlari hajmining tarkibi, ulushi % da



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.


Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo'lgan korxona va tashkilotlar tarkibi bo'yicha bo'linadi.



Ma'lumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu – o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



2022- yil yanvar-dekabr oylarida mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari hajmi



Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

2023- yil 1-yanvar holatiga ko'ra qurilish sohasida ro'yxatdan o'tgan jami korxona va tashkilotlar soni 10 mingta, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni esa, 9,6 mingtani tashkil etib, o'tgan 2021- yilning mos davriga nisbatan 823 taga ko'paygan.

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan bino va inshootlar qurilishi ishlari hajmi 107,0 % ni tashkil qilib (jami qurilishdagi ulushi 63,6 %) ni tashkil qildi, fuqarolik obyektlarini qurish 76,6 % ga (jami qurilishdagi ulushi 19,8 %), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlaringin 121,0 % ga (jami qurilishdagi ulushi 16,5 %). Bu qurilish sohasida korxona va tashkilotlar sonining ko'payishiga asosiy omil bo'lib xizmat qildi.

Bino va inshootlar qurilishi bo'yicha qurilish ishlaringin eng yuqori ulushi kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2021- yilning yanvar-dekabr oylaridagi jami qurilish ko'rsatkichiga nisbatan 110,2 % ni tashkil etdi.




Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni (birlikda)

	Holatiga ko'ra:		O'tgan yilga nisbatan, (+,-)
	01.01.2022- yil	01.01.2023- yil	
Toshkent shahar	8 811	9 634	823
tumanlar:			
Bektemir	192	221	29
Mirzo Ulug'bek	1124	1232	108
Mirobod	823	844	21
Olmazor	734	781	47
Sirg'ali	475	541	66
Uchtepa	647	681	34
Chilonzor	1109	1211	102
Shayxontoxur	695	756	61
Yunusobod	1096	1183	87
Yakkasaroy	901	975	74
Yangi xayot	199	273	74
Yashnobod	816	936	120



Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalarining hududlar kesimida ulushi (% da), 01.12.2023- yil holatiga




Ma'lumot uchun: Toshkent shahrida qurilish korxonalari soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan hududlar Mirzo Ulug'bek (12,8 %), Chilonzor (12,6 %) va Yunusobod (12,3 %) tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 11 785,7 mlrd. soʻmni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2021- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 93,4 % ni tashkil qilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 36,9 % ni tashkil qildi.




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jamiga nisbatan ulushi, %da



Maʼlumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng koʻp ulushi Yangihayot tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **50,6 %**), Yunusobod tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **47,2 %i**), Uchtepa tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **45,3 %i**), Bektemir tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **44,9 %i**) ga toʼgʼri keldi.



Qurilish ishlari umumiy hajmida kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi, % da



- Kichik korxona va mikrofirmalar**
- 2021- yil yanvar-dekabr oylari
 - 2022- yil yanvar-dekabr oylari

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2022-yil yanvar-dekabrdan 2021-yilning yanvar-dekabrga nisbatan ko'payish kuzatildi. Ular tomonidan jami qurilish ishlari hajmining **54,6 %**i bajarilib, 2021-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **4,2 %** punktga ko'paygan.

Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2021-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **109,3 %** ni tashkil etgan holda **17 425,5** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlaridagi ulushi **8,5 %** ni tashkil etib, **2 697,0** mlrd. so'm miqdorida qayd etilib, 2021-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **90,0 %** ni tashkil etdi.




Qurilish ishlari umumiy hajmida norasmiy sektorning ulushi



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **895,2** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilgan boʻlib, oʼsish surʼati 2021- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **74,6 %** ni tashkil qilib, jami amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi **2,8 %** ni tashkil etdi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **31 013,1** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʼsish surʼati **102,1 %** ni va jami amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi **97,2 %** ni tashkil etdi.



Mulkchilik shakli davlat va nodavlat boʻlgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, % da



Davlat mulki



Nodavlat mulk



Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta quollantirish ishlari ulushi

2022- yil yanvar-dekabr

59,2 %

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurish bo'yicha bajarilgan. Jami qurilish ishlarining **63,6 %** yoki **18 900,1** mlrd. so'mni tashkil etgan.

38,5 %

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan 7 267,4 mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi jami qurilish ishlaridagi ulushi **38,5 %** ni tashkil etdi.

52,9 %

Kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **10 007,1** mlrd. so'm yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **52,9 %** ni tashkil etdi.

8,6 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasiga **1 625,5** mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **8,6 %** ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida qurilish ishlari 2022- yil yanvar-dekabr oylarida

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)	O'sish sur'ati, %da	Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari (mlrd. so'm)
Toshkent shahar	31 908,3	101,1	18 900,1
tumanlar:			
Uchtepa	2 043,1	62,1	1040,7
Bektemir	1 012,3	110,9	616,1
Yunusobod	4 927,7	102,9	3595,5
Mirzo Ulug'bek	3 514,8	100,2	1884,6
Mirobod	3 809,7	115,5	2138,5
Shayxontohur	2 171,9	88,2	1586,1
Olmazor	2 255,7	100,1	1179,5
Sergeli	1 391,8	101,7	749,8
Yakkasaroy	3 022,3	114,3	1491,1
Yashnabod	2 995,4	132,3	1627,6
Yangihayot	1 511,2	114,8	811,7
Chilonzor	3 252,4	94,1	2179,0



Toshkent shahrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari, %da

2021- yil yanvar-dekabr

13,8



Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

26,1



Fuqarolik obyektlarini
qurilishi


60,1



Bino va inshootlarni
qurilishi

2022- yil yanvar-dekabr

16,5



Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

19,8



Fuqarolik obyektlarini
qurilishi

63,6



Bino va inshootlarni
qurilishi

Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

2022- yil yanvar-
dekabr oylarida

Toshkent shahrida qurilish ishlari




Bino va inshootlar qurilishi

ulushi %da

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **34,6 %** ni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-dekabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **112,3 %** ni tashkil etdi. Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan 2021- yilning yanvar-dekabr oyidagi ko'rsatkichga nisbatan **109,3 %** ni tashkil qildi, ulushi esa **52,1 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektoring ulushi esa 2021-yilning yanvar-dekabr oyidagi ko'rsatkichga nisbatan **87,8 %**ni tashkil qildi, ulushi esa **13,3 %**ni tashkil etdi.



■ 2021- yil yanvar-dekabr

■ 2022- yil yanvar-dekabr




Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

ulushi %da

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **47,2 %** ni tashkil etdi va 2021- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **57,2 %** ni tashkil etdi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **52,8 %** ni va 2021- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **108,8 %** ni tashkil etdi.



2022- yil yanvar-dekabr oylarida


Toshkent shahrida qurilish ishlari



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

ulushi % da

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **33,7 %** ni tashkil etdi va 2021- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **152,6 %** ni tashkil etdi. **66,3 %** ulush kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2021- yilning mos davriga nisbatan **108,8 %** ni tashkil etdi.



2022- yil yanvar-dekabr oylarida

Toshkent shahrida qurilish ishlari



Hududlar kesimida qurilish ishlari 2022- yil yanvar-dekabr

Eng yuqori hajm (mlrd. so'm)

Yunusobod t.
4 927,7

1

2
Mirobod t.
3 809,7

Mirzo ulug'bek t.
3 514,8

3



Eng kichik hajm (mlrd. so'm)

Bektemir t.
1 012,3



1

2

Sergeli
1 391,8

Yangihayot t.
1 511,2

3



TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI



**Toshkent shahar
Statistika boshqarmasi**

**Investitsiyalar va qurilish statistikasi
bo'limi**

Aloqa telefoni: (71) 203-88-18(19)

**2022- yil yanvar-
dekabr oylarida**

Toshkent shahrida qurilish ishlari